


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

**60111200 – Tasviriyl san'at va muhandislik grafikasi bakalavriat ta'lif  
yo'naliishing malaka talablari**

**Chirchiq**



## **ISHLAB CHIQILGAN VA KIRITILGAN:**

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

## **TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi huzuridagi Oliy va o‘rta maxsus, professional ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha o‘quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi kengashning 2022-yil “29” avgust dagi 5-sonli yig‘ilishida muhokama qilingan.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirining 2022-yil “3” 9 dagi 302-son buyrug‘i bilan ma’qullangan.

## **JORIY ETILGAN:**

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Mazkur Malaka talablari “Oliy ta’lim davlat ta’lim standarti. Asosiy qoidalar”, “Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori”, O‘zbekiston Respublikasi Milliy malaka doirasiga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me’yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

## MUNDARIJA

T/r		bet
1.	60111200 – Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi bakalavriat ta’lim yo‘nalishining umumiy tasnifi.....	4
1.1.	Qo‘llanish sohasi.....	4
1.1.1.	60111200 – Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi ta’lim yo‘nalishi malaka talabining qo‘llanilishi.....	4
1.1.2.	Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari.....	4
1.2.	60111200 – Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi .....	4
1.2.1.	60111200 – Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bitiruvchi bakalavrlar kasbiy faoliyatining sohalari.....	4
1.2.2.	60111200 – Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bitiruvchi bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining ob’ektlari.....	5
1.2.3.	60111200 – Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bitiruvchi bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari.....	5
1.2.4.	60111200 – Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bitiruvchi bakalavrlearning kasbiy vazifalari.....	6
2.	60111200 – Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bitiruvchi bakalavrlearning kasbiy kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar.....	7
2.1.	Tayanch kompetensiyalar.....	7
2.2.	Umumkasbiy kompetensiyalar.....	8
2.3.	Kasbiy kompetensiyalar.....	13
3.	O‘quv yuklamasining hajmi.....	18
	Bibliografik ma’lumotlar.....	19

## **OLIY TA'LIM MALAKA TALABI**

### **OLIY TA'LIM DARAJASI – BAKALARİAT**

#### **BAKALARİAT TA'LIM YO'NALISHI:**

##### **60111200 – TASVIRIY SAN'AT VA MUHANDISLIK GRAFIKASI**

###### **1. 60111200 – Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi bakalavriat ta'lism yo'naliishing umumiy tavsifi**

60111200 – Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi ta'lism yo'naliishi bo'yicha bakalavrular tayyorlash kunduzgi va kechki va sirtqi ta'lism shakllarida amalga oshiriladi. Barcha ta'lism shakllari bo'yicha o'qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Kunduzgi ta'limda bakalavriat dasturining me'yoriy muddati 3 yil.

###### **1.1. Qo'llanish sohasi**

###### **1.1.1. 60111200 – Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi ta'lism yo'naliishi malaka talabining qo'llanilishi.**

Malaka talabi 60111200 – Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi *bakalavriat* ta'lism yo'naliishi bo'yicha bakalavrular tayyorlovchi barcha oliy ta'lism muassasalar uchun talablar majmuuni ifodalaydi.

###### **1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilarini:**

- mazkur ta'lism yo'naliishi bo'yicha malaka talablari, fan, texnika va ijtimoiy soha yutuqlarini hisobga olgan holda, o'quv reja va fan dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o'quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas'ul hamda o'z vakolat doirasida bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lism muassasasining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv bo'limi boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o'qituvchilar;
- ta'lism yo'naliishing o'quv-reja va fan dasturlarini o'zlashtiruvchi oliy ta'lism muassasasining talabalari;
- bakalavriat bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;
- ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli Davlat organlari;
- oliy ta'lism muassasasini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;
- oliy ta'lism tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli Davlat organlari;
- kadrlar buyurtmachilari hamda ish beruvchi tashkilot va korxonalar;
- oliy ta'lism muassasalariga o'qishga kirayotgan abituriyentlar, ularning ota-onalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

###### **1.2. 60111200 – Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi ta'lism yo'naliishi bo'yicha bakalavrular kasbiy faoliyatlarining tavsifi**

###### **1.2.1. 60111200 – Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi ta'lism yo'naliishi bo'yicha bitiruvchilar kasbiy faoliyatining sohalari:**

Umumiy o'rta ta'lism maktablari, ixtisoslashtirilgan maktablari, akademik litseylar hamda professional ta'limi muassasalarida Tasviriy san'at va muhandislik grafikasiga oid fanlar bo'yicha pedagogik faoliyat;

Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi qo'llaniladigan sohalarda ilmiy-tadqiqot

faoliyati;

Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi sohasidagi fan yutuqlari, mahsulot va xizmatlarini ishlab chiqadigan va ishlatuvchi tashkilotlar.

*Yo'naliш bo'yicha fan, texnika va texnologiyalarning zamонавиy yutuqlari, kadrlar buyurtmachilari talablaridan kelib chiqqan holda bakalavrлarning kasbiy faoliyat sohalarida qo'shimcha va o'zgarishlar bo'lishi mumkin.*

#### **1.2.2. 60111200 – Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi ta'lim yo'naliшhi bo'yicha bitiruvchi bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining ob'ektlari:**

Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi ta'limi jarayoni, mazkur fanlar tizimini o'qitishni takomillashtirishga imkon beradigan pedagogik va innovatsion texnologiyalar, metodlar, tasviriy san'at va muhandislik grafikasi ta'limining nazariy masalalari, o'qitish metodikasi, ma'ruza, amaliy, seminar va laboratoriya mashg'ulotlarini loyihalashtirish va tashkil etish jarayoni;

ta'lim jarayoni;

pedagogik texnologiyalar va metodlari;

shaxsiy va kasbiy axborot maydonini shakllantirish jarayoni;

darsdan tashqari ta'lim-tarbiya jarayoni;

ta'lim sohasidagi muammolar va ularning yechimlarini topish jarayoni;

ta'limni boshqarish va pedagogik jarayonni tashkil etish;

ixtisoslik bo'yicha ilmiy-tadqiqot jarayonlari.

*60111200 – Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi ta'lim yo'naliшhi bo'yicha bakalavriat bitiruvchilari pedagogik qayta tayyorlashdan o'tgandan keyin professional ta'lim muassasalarida ta'limning vakolatlari boshqaruv organlari tomonidan aniqlanadigan umumkasbiy va ixtisoslik fanlarini o'qitish bo'yicha pedagogik faoliyati bilan shug'llanish huquqiga ega bo'ladi. Bakalavriatning kasb ta'limi yo'naliшhlari bundan mustasno.*

*60111200 – Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi ta'lim yo'naliшhi bo'yicha bakalavrлarning kasbiy faoliyati quyidagilarni qamrab oladi:*

- umumiy o'rta ta'lim maktablari, ixtisoslashgan maktablar, akademik litseylar va professional ta'lim muassasalarida: "Tasviriy san'at", "Amaliy san'at", "Kompozitsiya", "Haykaltaroshlik" fanlaridan o'rnatilgan tartibda pedagogik faoliyat olib borish;

- ta'lim tizimida kabinet mudiri, laborant va unga tenglashtirilgan lavozimlarda faoliyat olib borish;

- mos ta'lim yo'naliшlar bo'yicha ta'limni amalga oshiruvchi vazirliklar, uni tarmoq boshqarmalari va muassasalarida metodist bo'lib ishslash;

- Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi yo'naliшhidagi ilmiy-tadqiqot tashkilotlarida laborant bo'lib ishslash;

- ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarida mutaxassisligiga oid faoliyat olib borish:

- kasbiy-ta'lim pedagogikasi va texnologiyasi, o'qitishning didaktik vositalari, ta'limning elektron vositalarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish.

#### **1.2.3. 60111200 – Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi ta'lim yo'naliшhi bo'yicha bitiruvchi bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari:**

- *Pedagogik faoliyat;*
- *tashkiliy-boshqaruv faoliyat;*
- *ilmiy-tadqiqot faoliyati;*
- *ma'naviy-ma'rifiy faoliyat;*
- *tadbirkorlik.*

Ta'lim yo'nalishi bo'yicha tayyorlanadigan bakalavrular kasbiy faoliyatlarining muayyan turlari ta'lim jarayonining manfaatdor ishtirokchilari bilan hamkorlikda oliv ta'lim muassasasi tomonidan aniqlanadi.

#### **1.2.4. 60111200 – Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi ta'lim yo'nalishi bo'yicha bitiruvchi bakalavrlarning kasbiy vazifalari:**

*pedagogik (umumiy o'rta, ixtisoslashgan mакtablar, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimi, texnikumda) faoliyatda:*

– umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus, professional ta'lim muassasalarida qalamtasvir, rangtasvir, san'at tarixi, kompozitsiya, plastik anotomiya, haykaltaroshlik, amaliy bezak san'ati, chizma geometriya, chizmachilik, muhandislik kompyuter grafikasi, grafik tasvirlash asoslari va 3D modellashtirish, texnik chizmachilik, chizma geometriya va muhandislik grafikasi fanlaridan o'rnatilgan tartibda dars berish;

– umumiy o'rta ta'lim maktablari, akademik litseylar va kasb-hunar kollejlaridan tashqari muassasalarda tarbiyachi bo'lib ishslash;

– ta'lim tizimida kabinet mudiri, metodist va unga tenglashtirilgan lavozimlarda ishslash;

– tabiiy, ijtimoiy-gumanitar fanlar yo'nalishidagi ilmiy-tadqiqot tashkilotlarida kichik ilmiy xodim bo'lib ishslash;

– o'rta, o'rta maxsus, professional ta'lim muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy sohalarda ishslash;

– ishlab chiqarish sohasida kompyuter texnologiyalari, kasbiy ta'lim pedagogikasi va texnologiyasi, o'qitishning didaktik vositalari, ta'limning elektron vositalarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish;

– ekologiya va tabiatni muhofaza qilish bo'limlarda, gidrometeorologiya tashkilotlarida.

*Ilmiy-tadqiqot faoliyatda:*

– Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi sohalarining ilmiy-tadqiqot institutlari va ilmiy markazlarda ta'lim yo'nalishlaridagi fanlar va ularni o'qitish metodikasiga oid mavzularda tadqiqot olib borish;

– Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi sohalariga doir internet tarmog'ida eng yangi ilmiy yutuqlar haqidagi ma'lumotlarni maqsadga yo'nalgan holda qidirish va topish;

– ta'lim yo'nalishlaridagi fanlarga oid ilmiy to'plamlar, mahalliy va chet el ilmiy-tadqiqot yutuqlarini o'rganish;

– ilmiy-tadqiqot ishlanmalarini tayyorlash, soha adabiyotlari ekspertizasini amalga oshirishda qatnashish;

– ma'lumotlarni jamlash, qayta tayyorlash, mavzu bo'yicha ilmiy ma'lumotlarni tizimli tahlil qilish;

– tadqiqot natijalari va ishlanmalarini tatbiq etish.

*ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish faoliyatda:*

– ishlab chiqarish faoliyati natijasida olingan ma'lumotlarni qayta ishslash;

– tasviriy san'at va muhandislik grafikasini o'qitishning yangicha metodlarini ishlab chiqish va tadbiq qilish;

– tamonaviy kompyuter dizayni soxasida xizmat ko'rsatishni rivojlantirish hamda amaliyotga joriy etish;

*Tashkiliy-boshqaruv faoliyatda:*

– pedagogik va axborot texnologiyalardan foydalangan holda ishlab chiqarish jarayonlari monitoringi va sifatini baholash mexanizmlarini ishlab chiqish;

– atrof-muhitni muhofaza qilish va mehnat xavfsizligi talablariga mos kelishi borasida ishlab chiqarish jarayonlarini nazorat qilish;

– jamoada ijtimoiy va ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish va boshqarish;

- fikrlar har xil bo‘lgan sharoitda to‘g‘ri qaror qabul qilish;
- bajarayotgan faoliyati bo‘yicha ish rejasini tuzish, nazorat qilish va amalga oshirilgan ishning natijalarini baholash;
- ta’lim mazmunini belgilash tamoyillari va mezonlariga rioya etish, o‘quv materiallarini tanlash va tizimlashtirishga doir zamonaviy yondashuvlarni hisobga olish, o‘quv materiallarini modellashtirish;
- yaxlit pedagogik jarayonning umumiy qonun, qonuniyat va tamoyillariga amal qilish, ta’lim-tarbiya jarayonida gnoseologik, tashkiliy, psixologik, didaktik, sotsiologik va kibernetik qonuniyatlarning uyg‘unligiga erishish;
- ta’lim-tarbiya jarayoni tarkibiy qismlari (maqsad, natija, mazmun, shakl, metod va vosita)ning o‘zaro aloqadorligi va umumiyligini hisobga olish;
- ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etishning asosiy va yordamchi shakllardan unumli foydalanish;
- o‘quvchilarning bo‘sh vaqtini samarali tashkil etish va o‘tkazish;
- ta’lim-tarbiyaning xilma-xil metodlarini, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni oqilona tanlay olish, ijodiy yondashuv asosida metod va texnologiyalarning milliy mentalitetga mosligini ta’minalash.

**2. 60111200 – Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi ta’lim yo‘nalishi  
bo‘yicha bitiruvchi bakalavrлarning kasbiy kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar**

**2.1. Tayanch kompetensiyalar (TK)**

<b>Таянч компетенциялар тоифалари</b>	<b>Таянч компетенциялар</b>	<b>Таянч компентенцияларга эришиш индикаторлари</b>
Faol fuqarolik	TK-1. Fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish uchun jamiyat tarixiy rivojlanishining asosiy bosqichlari va qonuniyatlarini tahlil qila oladi	TK-1.1. Jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni asosli, mantiqiy idrok etadi. TK-1.2. Kasbiy faoliyatida o‘quvchilar va jamoa orasida ijtimoiy, tarixiy voqealarni to‘g‘ri va xolis talqin qila oladi.
	TK-2. Dunyoqarash pozitsiya-sini shakllantirish uchun falsafiy bilimlar asoslaridan foydalana oladi	TK-2.1. Umummilliy qadriyatlar va vatanparvarlik g‘oyalarini mukammal tushunadi. TK-2.2. Shaxs duyoqarashi shakllari, turlari va tamoyillaridan foydalanaadi.
Muloqot	TK-3. Faoliyatida davlat va xorijiy tillarda og‘zaki hamda yozma shakllarda muloqot qila oladi	TK-3.1. Xorijiy tillarni biladi hamda o‘zga millatlar madaniyatini hurmat qiladi. TK-3.2. Milliy va xorijiy ommoviy axborot vositalarini kuzatadi va tahlil qila oladi.
		TK-3.3. Kasbiy maqsadlariga erishish va samarali muloqot qilish uchun davlat va xorijiy tillarda og‘zaki va yozma shakllarda muloqot qila oladi.
Raqamlı texnologiyalardan foydalanish	TK-4. Kasbiy faoliyatidagi maqsadga erishishda va vazifalarni bajarishda zamonaviy axborot-	TK-4.1. Raqamlı texnologiyalardan foydalana oladi, ma'lumotlarni ishslash, qayta ishslash va ulardan foydalana olishni biladi.

	kommunikasiya texnologiyalaridan foydalana oladi.	TK-4.2. Kasbiy faoliyatida tayyor dasturiy ta'minotlarni va raqamli texnologiyalarni ishlata oladi va dars jarayoniga joriy qiladi.  TK-4.3 Media va axborot savodxonlikni o'zlashtirgan holda tegishli texnologiyalardan foydalangan holda axborot va mediakontentni olish, baholash, yaratish va tarqatish layoqatiga ega bo'ladi, shuningdek talabalarga zamonaviy ommaviy axborot vositalari dunyosida xavfsiz ishlashga yordam beradi.
Jamoada ishslash, hamkorlik va yetakchilik	TK-5. Ijtimoiy o'zaro munosabatlarni amalga oshiradi va jamoada o'z rolini belgilay oladi.	TK-5.1 Jamoada ishslash qobiliyati hamda yetakchilik fazilatlari va ko'nikmalarini namoyon etadi.  TK-5.2. Samarali nutqiy va ijtimoiy o'zaro aloqa qilish qobiliyatini, shu jumladan, turli tashkilotlar bilan ishslashda namoyon etadi.
Tizimli va tanqidiy fikrlash	TK 6. Axborotni izlash, tanqidiy tahlil va sintez qilish, vazifalarni hal qilish maqsadida tizimli yondashuvni qo'llaydi	TK-6.1 Tizimli va tanqidiy fikrlashning xususiyatlari to'g'risida bilimlarni namoyish etadi, ma'lumotlarga nisbatan o'z mulohazalari va baholarini asosli shakllantiradi, asosli qaror qabul qiladi.  TK-6.2. Mantiqiy shakl va tartiblarni qo'llaydi, o'zining va boshqalarning aqliy faoliyati haqida fikr yurita oladi.  TK-6.3 Axborot manbaalarini qaramaqarshilik va ishonchlik nuqtai nazaridan tahlil qiladi.

## 2.2. Umumkasbiy kompetensiyalar (UKK)

Kasbiy faoliyat sohasi. Ta'limg-tarbiya jarayonini boshqarish		
Umumkasbiy kompetensiyalar toifalari	Umumkasbiy kompetensiyalar	Umumkasbiy kompentensiyalarga erishish indikatorlari
1. O'quv jarayonini rejalashtirish	UKK-1.1. Davlat ta'limg standartlari va o'quv dasturlarining maqsadlariga muvofiq darslarning taqvimi mavzuli rejasini ishlab chiqadi.	UKK-1.1.1. Davlat ta'limg standartlari va o'quv dasturlarining maqsadlariga muvofiq darslarning taqvimi mavzuli rejasini ishlab chiqadi.
	UKK-1.1.2. O'quvchilarning ehtiyojlari va qiziqishlaridan kelib chiqib o'quv dasturini moslashtiradi.	UKK-1.1.2. O'quvchilarning ehtiyojlari va qiziqishlaridan kelib chiqib o'quv dasturini moslashtiradi.
	UKK-1.1.3. Fanni o'qitishda fanlararo kompetensiyalarni korrelyatsiya va integratsiya tamoyillarini hisobga olgan holda o'z faoliyatini rejalashtiradi.	UKK-1.1.3. Fanni o'qitishda fanlararo kompetensiyalarni korrelyatsiya va integratsiya tamoyillarini hisobga olgan holda o'z faoliyatini rejalashtiradi.
	UKK-1.2. O'quv dasturiga	UKK-1.2.1. O'quvchilar bilimini baholash

	mos ravishda o'quv-metodik jamlanmalarni (dars rejası, didaktik, taqdimot va tarqatma materiallar) ishlab chiqadi.	natijasida olingen ma'lumotlarni inobatga olgan holda, darsning aniq va o'lchamli maqsad va natijalarini aniqlab, dars rejasini ishlab chiqadi. UKK-1.2.2. Darsning maqsadlari, o'quvchilarning yosh xususiyatlari va o'zlashtirishiga mos keladigan dars shakllari va usullarini rejalashtiradi. UKK-1.2.3. Tegishli o'quv, didaktik, taqdimot va tarqatma materiallardan foydalanishni rejalashtiradi. UKK-1.2.4. Dars jarayoniga zamonaviy axborot texnologiyalar integratsiyasini rejalashtiradi.
2. Ta'lim samaradorligini ta'minlash (ta'lim dasturlarini amalga oshirish)	UKK-2.1. O'qituvchi ta'lim jarayonini samarali tashkil etadi.	UKK-2.1.1 Dars maqsadlari asosida o'quvchilar uchun erishimli vazifalarni belgilaydi. UKK-2.1.2 Dars vaqtidan oqilona foydalanadi. UKK-2.1.3 Ta'lim jarayonini qo'llab-quvvatlash va ta'limiy muammolarni hal qilishda AKTdan foydalanadi. UKK-2.1.4. O'quvchilar bilimini baholash natijasida olingen ma'lumotlar asosida darsni tashkil etish va ta'lim berishdagi yondashuvlarining samaradorligini tahlil qiladi. UKK-2.1.5. O'quvchilarning ta'limiy maqsadlari va yosh xususiyatlariga mos keladigan o'qitish usullari va yondashuvlarni tanlaydi.
	UKK-2.2. O'qituvchi o'quv maqsadlari va o'quvchilarni yosh xususiyatlariga mos ravishda o'qitishning usul va uslublaridan foydalanadi.	UKK-2.2.1. O'qitishning faol usullaridan foydalanadi. UKK-2.2.2 Umumiyo'rta ta'limning davlat standartlarida belgilangan o'quvchilarning asosiy kompetensiyalari va hayotiy ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan usullardan foydalanadi. UKK-2.2.3. O'quvchilarning jamoaviy va loyihibiy ishlarini tashkil etadi. UKK-2.2.4. O'quvchilarga metakognitiv strategiyani o'rgatishda turli yondashuvlardan, shu jumladan rejalashtirish, nazorat qilish va o'z-o'zini baholash ko'nikmalaridan foydalanadi (kognitiv nosozliklarni inobatga olgan holda).
	UKK-2.3. O'qituvchi o'quvchilarni o'rgatish maqsadida o'qish jarayoniga faol jalb qiladi.	UKK-2.3.1. O'quvchilarga individual ta'lim ehtiyojlaridan kelib chiqib, o'z vaqtida differensial yordam beradi. UKK-2.3.2. Dars mavzusini amaliyot bilan

		(hayotdagি misollar yordamida) bog‘laydi. UKK.-2.3.3. Dars davomida har bir o‘quvchiga o‘z g‘oyalari va qarashlarini ifoda etish imkoniyatini beradi.
3. O‘zlashtirishni baholash va qayta aloqani taqdim etish	UKK-3.1. O‘qituvchi zamonaviy baholash nazariyalarini biladi va qo‘llaydi.	UKK-3.1.1. Fanga oid kompetensiyalarni baholay oladi. UKK-3.1.2. Ta’lim natijalarini baholash uchun turli usul va vositalardan foydalanadi. UKK-3.1.3. Kasbiy faoliyatda xalqaro baholash dasturlari (PISA, TIMSS, PIRLS, TALIS va boshqalar) talablari asosida ta’lim natijalarining sifatini baholay oladi. UKK-3.1.4. O‘quvchilarning XXI asr ko‘nikmalariga ega ekanligini, konstruktiv, faol, qiziquvchan va jamiyatda tashabbuskor, faol fuqarolik pozisiyasini egallaydigan, hal qiluvchi qarorlarni mustaqil ravishda qabul qiladigan, bilim va ko‘nikmalarini hayotiy vaziyatlarda qo‘llay oladigan, mulohazali shaxs sifatida shakllanganligini baholay oladi. UKK-3.1.5. Ta’lim natijalarini diagnostika qilish uchun turli usul va vositalardan foydalanadi.
	UKK-3.2. O‘quvchilarning ta’lim yutuqlarini muntazam ravishda baholaydi va ularni tahlil qiladi.	UKK-3.2.1. O‘quvchilar tomonidan bilimlarni egallash darajasini (hajmini) muntazam va tizimli ravishda kuzatib boradi. UKK-3.2.2. O‘quvchilar erishgan yutuq va natijalarini tahlil qiladi. UKK-3.2.3. Dars rejasi va usullarini moslashtirishda tahlil natijalaridan foydalanadi.
	UKK-3.3. O‘quvchilarga ularning yutuqlari haqida ma’lumot beradi, ularni o‘qishni davom ettirish va rivojlanishga undaydi.	UKK-3.3.1. O‘quvchining yutuqlarini baholaydi, bahoni asoslab beradi. UKK-3.3.2. O‘quvchilarning yutuqlarini baholash orqali, ularni o‘qishni davom ettirishga qiziqtiradi.
	UKK-3.4. O‘qituvchi o‘z o‘quvchilarining o‘rganishdagi qiyinchiliklarini kuzatadi va tavsiflaydi. Agar kerak bo‘lsa, o‘qituvchi tegishli sohadagi mutaxassisiga murojaat qiladi.	UKK-3.4.1. O‘quvchilar ta’lim jarayonida to‘qnashgan qiyinchiliklarini kuzatadi va qayd etadi. UKK-3.4.2. Ushbu sinf (guruh)da dars beradigan hamkasbleri bilan muayyan o‘quvchining ta’lim olishdagi qiyinchiliklari to‘g‘risida maslahatlashadi. UKK-3.4.3. Muayyan o‘quvchining ta’lim olishdagi qiyinchiliklari to‘g‘risida tegishli soha mutaxassislari bilan maslahatlashadi.
4.Tarbiyaviy faoliyatni tashkil etish.	UKK-4.1. O‘qituvchi o‘quv faoliyatini tashkil qiladi, o‘quvchilarning rivojlanishiga hissa qo‘shadigan turli	UKK-4.1.1. O‘quvchilarning ehtiyojlarini inobatga olgan holda rivojlanishiga hissa qo‘shadigan ta’lim maqsadlari va vazifalarini belgilaydi

	shakllarda ijtimoiy me'yorlarni shakllantiradi.	
	UKK-4.2. O'qituvchi tarbiyaviy faoliyatini amalgalashiradi, qadriyatlarini rivojlantirish va tarbiyaviy ishlarning interfaol, shakllari va usullarini qo'llaydi.	<p>UKK-4.2.1. Tarbiyaviy ishlarning zamonaviy, shu jumladan interaktiv shakl va usullarini mashg'ulot va sinfdan tashqari ishlarida qo'llaydi.</p> <p>UKK-4.2.2. Tarbiya ishlarni olib borishda o'quvchilarning jinsi, yoshi, madaniy va individual xususiyatlarini inobatga oladi.</p> <p>UKK-4.2.3. Bolaning emotsional-qadriyatli sohasini rivojlantiradigan vaziyatlar va hodisalarini loyihalashtiradi (bolaning ta'sirchanlik madaniyati va qadriyatlari yo'naliшlarini).</p> <p>UKK-4.2.4. Ta'lim muassasasining ustavi va ichki tartib qoidalariga muvofiq o'quvchilar uchun aniq odob-ahloq qoidalarini belgilaydi va o'rnatadi.</p> <p>UKK-4.2.5. O'quvchilarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini tashkil qilishda yordam beradi va qo'llab-quvvatlaydi.</p> <p>UKK-4.2.6. Ta'lim muassasasining imkoniyatlarini, yashash joyi va mintaqaning tarixiy-madaniy o'ziga xosligini hisobga olgan holda sinfdan tashqari ishlarning har xil turlarini: o'yin, o'quv-tadqiqot, badiiy va samarali, madaniy va bo'sh vaqtlarini tashkil etadi.</p> <p>UKK-4.2.7. Ziddiyatlarni hal qilish, sinfda va undan tashqarida muloqot qilish uchun ijobjiy muhit yaratishda muloqot o'tkazadi.</p> <p>UKK-4.2.8. O'zgaruvchan ko'p madaniyatli muhitda o'quvchilarda bag'rikenglik, odob-ahloq va hayotga tayyorgarlik bo'yicha ko'nikmalarini shakllantiradi.</p> <p>UKK-4.2.9. O'quvchilarda kognitiv faollik, mustaqillik, tashabbuskorlik, ijodkorlik, fuqarolik pozisiyasi, mehnatga layoqati, sog'lom va xavfsiz turmush tarzi madaniyatini rivojlantiradi.</p>
5. Xavfsiz rivojlantiruvchi ta'lim muhitini yaratish va ta'minlash	UKK-5.1. O'qituvchi har bir talaba uchun psixologik xavfsiz muhit yaratadi.	<p>UKK-5.1.1. O'quvchilar erkin rivojlanishlari va o'zlarini namoyon eta olishlari uchun o'zaro hurmat muhitini yaratadi.</p> <p>UKK-5.1.2. Jinsi, millati, madaniyati, ona tili, dini, oilaviy ijtimoiy-iqtisodiy holati va/yoki alohida ehtiyojlaridan qat'iy nazar, har bir o'quvchiga o'qish va sind hayotida qatnashish uchun teng imkoniyatlar yaratadi.</p>
	UKK-5.2. O'qituvchi turli	UKK-5.2.1. Nizoli vaziyatlarni yetarli

	vaziyatlarda o'quvchilarning ruhiy xavfsizligini ta'minlashga yordam beradi.	darajada hal qiladi. UKK-5.2.2. O'quvchilarga xavfsizlik qoidalarini mazmuni va ularga rioya qilish asoslarini tushunishga va unga rioya qilishga yordam beradi. UKK-5.2.3. O'quvchilarni sinf (guruh)dagi va maktabdagisi odob ahloq qoidalarini yaratish va unga rioya etishga jalg qiladi UKK-5.2.4. O'quvchilarga turli xil tahdidlarning mohiyati, favqulodda vaziyatlarda protseduralarning mazmuni va harakatlar ketma-ketligini tushuntiradi.
	UKK-5.3. O'qituvchi sinfni samarali boshqaradi va o'quv muhitini talabalar ehtiyojlariga moslashtiradi.	UKK-5.3.1. O'quvchilarning ehtiyojlariga javob beradigan aniq ko'rsatmalar berish orqali sinf (guruh)dagi o'quvchilar faoliyatini boshqaradi. UKK-5.3.2. O'quvchilarning maxsus ta'limiy ehtiyojlarini asosida individuallashtirilgan ish olib boradi.
	UKK-5.4. O'qituvchi o'quvchilarda zamonaviy ommaviy axborot vositalarida xavfsiz ishslash savodxonligini rivojlantiradi.	UKK-5.4.1. O'quvchilarga zamonaviy ommaviy axborot vositalari dunyosida xavfsiz ishslashga yordam beradi.
<b>Kasbiy faoliyat sohasi. Kasbiy rivojlanish va hamkorlik</b>		
6. O'z-o'zini rivojlantirish kasbiy o'sish va	UKK-6.1. O'qituvchi uzlucksiz ta'lim olishning muhimligini tushunadi va kasbiy rivojlanish uchun turli imkoniyatlardan foydalanadi.	UKK-6.1.1. Muntazam malaka oshirish kurslaridan o'tadi UKK-6.1.2. Doimiy ravishda fanga oid adabiyotlar bilan tanishib, yangi bilimlarni amaliyotda qo'llaydi. UKK-6.1.3. Seminar va treninglarda, shuningdek kasbiy rivojlanishni ta'minlashga qaratilgan boshqa tadbirdorda qatnashadi.
	UKK-6.2. Hamkasblari bilan tajriba almashishdan iborat bo'lgan maktabning "uslubiy kengashlari"da qatnashadi.	UKK-6.2.1. Ishni takomillashtirish va tajriba almashishdan iborat bo'lgan maktabning "uslubiy kengashlari"da qatnashadi. UKK-6.2.2. O'zaro darslarda qatnashadi, ularni tahlil qiladi, undan o'zining kasbiy faoliyatida foydalanadi.
	UKK-6.3. O'qituvchi o'z ishini o'z-o'zini tahlil qilish va o'zini o'zi baholash asosida o'z kasbiy rivojlanishini rejalashtiradi va amalga oshiradi.	UKK-6.3.1. O'z tajribasini namoyish etish uchun ochiq darslarga tayyorgarlik ko'radi va o'tkazadi. UKK-6.3.2. O'zining ta'lim faoliyatini (kuchli va zaif tomonlarini) yetarlicha baholaydi va kasbiy rivojlanish ehtiyojlarini belgilay oladi. UKK-6.3.3. O'zining ish amaliyotida kerakli o'zgarishlarni amalga oshiradi.

7. Hamkasblar va ta'lim oluvchilarning ota-onalari (ularning o'rmini bosuvchi shaxslar) bilan hamkorlik	UKK-7.1 O'qituvchi bolalarning rivojlanishi manfaatlarida ota-onalarni maktab bilan hamkorlikning turli shakllariga jalb qiladi.	UKK-7.1.1. O'quvchilarning ota-onalarini (ularning o'rmini bosuvchi shaxslarni) ta'limgarayoniga jalb qiladi. UKK-7.1.2. O'quvchilarning ota-onalarini (ularning o'rmini bosuvchi shaxslarni) sinf va maktab hayotiga jalb qiladi. UKK-7.1.3. O'quvchilarning ota-onalarini (ularning o'rmini bosuvchi shaxslarni) o'quvchilarni rivojlanishi va ta'limguhiti to'g'risida qaror qabul qilishda ishtirok etishga jalb qiladi.
	UKK-7.2 O'qituvchi o'quv vazifalarini bajarish uchun hamkasblari va mutaxassislari bilan hamkorlik qiladi.	UKK-7.2.1. O'quvchining individual ta'limgutoriyasini loyihalashtirish va to'g'rilash uchun o'qituvchilar va boshqa mutaxassislar bilan o'zaro aloqada bo'lib, ta'limguhitining barcha turlariga (fan, meta-mavzu va shaxsiy) erishish vazifalariga muvofiq hamkorlik qiladi. UKK-7.2.2. Tarbiyaviy muammolarni hal qilishda va o'quvchilarni hayotga tayyorlashda boshqa pedagogik xodimlar va mutaxassislar, jamoat tashkilotlari va bo'limlari (Yoshlar ittifoqi) bilan hamkorlik qiladi.

### 2.3. Kasbiy kompetensiyalar (KK)

Kasbiy kompetensiyalar toifalari	Kasbiy kompetensiyalar	Kasbiy kompetensiyalarga erishish indikatorlari
Mutaxassislik faoliyati asoslari	KK-1. Kelajakdagi kasbiy faoliyatda tasviriy san'at va muhandislik grafikasiga oid fanlar sohalari bo'yicha bilim, malaka va ko'nikmalarga ega bo'ladi.	KK-1.1. Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi fanlarning asosiy maqsadi va tushunchalari, shakllanishi va rivojlanishining tarixiy bosqichlari, fanlarining zamonaviy yutuqlarini bilishi; KK-1.2. Badiiy ta'limganing o'ziga xosliklarini anglash, turli tipdagi ta'limguhitining muassasalarida bolalarni o'qitishda uzviyilikni amalga oshirish vositalari, turli badiiy tizimlar nazariyasi va tarixiga doir zamonaviy bilimlarni, badiiy-ijodiy faoliyatga doir bilim, ko'nikma va malakalarni qo'llay olish hamda egallangan tayanch bilimlarni o'quvchilarga uzatishga qobiliyatlilik, tekis geometrik shakllar, ularga doir turli geometrik yasash usullarini, tabiiy buyumlar va geometrik sirtlarning ortogonal va aksonometrik proeksiyalarini hosil qilish hamda ularni chizish usullari, ularga oid bo'lgan masalalarni yechish malakasi va shu bilan

		<p>birga mazkur chizmalarni davlat standarti asosida bilim berish, tahlil qilishga o'rgatish, tahliliy – tanqidiy, ijodiy va mustaqil fikr yuritish;</p>
	<p>KK-2. Kelajakdagi kasbiy faoliyatda Tasviriy san'at va chizmachilik fanlarining o'qitish metodikasining rivojlanish tarixi, asosiy prinsiplari va qonuniyatlari, dolzarb muammolari, fanni o'qitishning mazmuni, metodlari, vositalari, shakllari shuningdek, xususiy metodikaning o'ziga xos xususiyatlari, fanni o'qitishda zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanish kompetensiyalarini rivojlantiradi</p>	<p>KK-2.1. Tasviriy san'at va chizmachilik fanlarining o'qitish metodikasining rivojlanish tarixi, asosiy prinsiplari va qonuniyatlari, dolzarb muammolari, fanni o'qitishning mazmuni, metodlari, vositalari, shakllari shuningdek, xususiy metodikaning o'ziga xos xususiyatlari, fanni o'qitishda zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanish, o'quvchilar ongi va qalbiga milliy g'oyani singdirishda zarur metodik bilim, ko'nikmalarni shakllantirish yo'llariga oid bilimlar berish, tahliliy – tanqidiy, ijodiy va mustaqil fikr yuritish va o'rgatish, umumiy o'rta ta'lif maktablari geografiya va iqtisodiy bilim asoslari fani o'qituvchilarining kasbiy bilim va ko'nikmalarini Davlat talablari asosida chuqurlashtirish, yangilash va ta'liftarbiya jarayonida innovatsion texnologiyalaridan foydalanish imkonini beradigan zamonaviy kompetensiyalarini rivojlantirish;</p>
		<p>KK-2.2. Badiiy ta'lifning o'ziga xosliklarini anglash, turli tipdag'i ta'lif muassasalarida bolalarni o'qitishda uzviylikni amalga oshirish vositalarini egallaganlik;</p> <p>-Turli badiiy tizimlar nazariyasi va tarixiga doir zamonaviy bilimlarni egallaganlik;</p> <p>-Badiiy-ijodiy faoliyatga doir bilim, ko'nikma va malakalarni qo'llay olish hamda egallangan tayanch bilimlarni o'quvchilarga uzatishga qobiliyatatlilik;</p> <p>-Muzey, galereya, axrxitektura va milliy madaniyat yodgorliklariga ekskursiya uyuştirish, san'at bo'yicha suhbatlarni tashkil etish hamda o'tkazish sohasidagi bilimlarni qo'llay olishga qobiliyatatlilik;</p> <p>-Fan sohasidagi yangi ma'lumotlarni tahlil qilish, san'atda zamonaviy texnologiyalarni qo'llash, badiiy-amaliy va loyihibiy-dizayn faoliyatining zamonaviy yo'nalishlari bo'yicha amalga tadqiqotlar sifatini tushunishni namoyon qilishga qobiliyatatlilik;</p> <p>-Matbaa, interer va ekstererga badiiy</p>

	<p>bezak berish, tasviriy, amaliy san'at hamda fan sohasiga doir zamonaviy texnologiya, metod, vositalarni qo'llay olishga qibiliyatatlilik;</p> <p>-Butun hayot davomida ilmiy-pedagogik va badiiy-amaliy faoliyat sohasida o'z-o'zini takomillashtirishga qobiliyatatlilik.</p> <p>- Tekis geometrik shakllar, ularga doir turli geometrik yasash usullaridan foydalana oladi.</p> <p>- Tabiiy buyumlar va geometrik sirtlarning ortogonal va aksonometrik proeksiyalarini hosil qilish hamda ularni chizish usullari, ularga oid bo'lgan masalalarni yechish malakasi hosil bo'ladi va shu bilan birga mazkur chizmalarni davlat standarti asosida bajara oladi;</p> <p>- Turli mashina va mexanizmlarning detallarini yasash hamda ularni yig'ish uchun tuzilgan chizmalarni bajara oladi;</p> <p>- Bugungi ishlab chiqarish jarayonida mashina va mexanizmlarning ishslash prinsiplarini ifodalovchi sxematik chizmalarni bajarish va o'qiy olish qibiliyatiga ega bo'ladi;</p> <p>- Turar joy, maktab, ta'lim muassasalari, korxona va boshqa shu kabi binolarning chizmalarini bajarish hamda uni o'qish malakasi hosil bo'ladi hamda fanni bugungi kundagi qurilish soxasi, jumladan, turar-joy va noturar joy binolar, yo'llar, temir yo'llar, ko'priq va tonellar qurilishi bilan bog'lash qibiliyatiga ega bo'ladi;</p> <p>- Fazoviy jism larning geometrik tasavvuridan uning planimetrik tasviri (tekis chizmasi)ga o'tishda ijodiy yondasha oladi;</p> <p>- Fazoviy jism elementlarining o'zar munosabatlarini uning planimetrik tasviridan qayta fazoviy holatiga ko'chirib o'tish qonuniyatlarini tadqiq qilish qibiliyatiga ega bo'ladi;</p> <p>- Model, detal va buyumlarning ishchi va yig'ish chizmalarini tuzish va o'qish qonuniyatları, grafika fanlari tarixi va rivojlanishi jarayonlariga uslubiy yondashuv hamda ilmiy dunyoqarashini shakllantirish vazifalarini bajarish qobiliyatiga ega bo'ladi;</p> <p>- Geometrik figuralarning tekislik va sirt ustida proeksiyalash usullarini tadqiq qilish, ularning qiyosiy tahlilini bajara olish qibiliyatiga ega bo'ladi.</p> <p>- Geometrik figuralarning tekis</p>
--	---

	<p>chizmasidan uning fazoviy holatini va aksincha fazoviy holatidan uning tekis chizmasini anglay olish, tasavvur va tafakkur qila olish qobiliyatiga ega bo‘ladi.</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- Geometrik shakl va sirtlarning ortogonal, aksometrik va perspektiv tasvirlarini mustaqil bajara olish qibiliyatiga ega bo‘ladi.</li> <li>- Geometrik shakl va sirtlarning o‘zaro munosabatlariga oid pozitsion va metrik masalalarni yecha olish qibiliyatiga ega bo‘ladi.</li> <li>- Geometrik shakl va sirtlarning, turli obyektlarning shaxsiy va tushuvchi soyalarini qurish, unga tuzatishlar kiritishga oid qibiliyatiga ega bo‘ladi.</li> <li>- Avvaldan berilgan shartga asosan geometrik shakl, sirt va obektlarini loyihalay olish va uni ishlab chiqarish bilan bog‘lashga oid qibiliyatiga ega bo‘ladi.</li> <li>- Perspektiv tasvir qurish qoidalarini tasviriy san‘atga integratsiyalay olish qibiliyatiga ega bo‘ladi.</li> <li>- Modellashtirish ob’ektlarining rasmlarini olish, shu jumladan raqamli, CAD dasturlari bilan ishlash, raqamli shaklda axborotni boshqarish, uch o‘lchamli geometrik modelni loyihalay olish qibiliyatiga ega bo‘ladi.</li> <li>- Standart paketlar va avtomatlashtirilgan loyihalash vositalaridan foydalangan holda texnik ob’ektlar va texnologik jarayonlarni modellashtirishni ta’minlaydi, natijalarni qayta ishlash va tahlil qilish bilan belgilangan usullar bo‘yicha eksperimentlar o‘tkaza olish qibiliyatiga ega bo‘ladi.</li> <li>- Texnik topshiriqlarga muvofiq va avtomatlashtirilgan loyihalashning standart vositalaridan foydalangan holda, muhandislik inshootlarining qismlari va tarkibiy qismlarini hisoblash va loyihalash ishlarini bajara oladi;</li> <li>- Grafik amallarni mustaqil tahlil qilishda ijodiy yondasha oladi;</li> <li>- Grafik bilimlarga oid axborotlarni to‘plash, jamlash, qayta ishlash va ulardan o‘qitishda foydalanish usullarini egallaydi va o‘z kasbiy faoliyatida ulardan mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila oladi;</li> <li>- Grafik ta’limga oid yuqori darajadagi bilim, ko‘nikma va malakalarini chizmachilik</li> </ul>
--	---

		fanini o‘qitishda qo‘llashga ijodiy yondasha oladi;
Ilmiy-tadqiqot faoliyati	KK-4. Ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarishda ishtirok etadi.	KK-4.1. Kasbiy faoliyatda ilmiy-texnik muammolarni hal etishda ishtirok etadi. KK-4.2. Kasbiy faoliyatda va iqtisodiyot tarmoqlarida innovatsion va startap loyihalarni amalga oshirishda ishtirok eta oladi.
Umumpedagogik funksiyalar.	KK-5. Aniq maqsadlarga yo‘naltirilgan kasbiy vazifalarni yechishda nazariy bilim, amaliy ko‘nikma va malakalarga ega bo‘ladi va ulardan foydalana oladi.	KK-5.1. O‘quv modulining (o‘quv fani) tuzilishi, tarkibi va didaktik birliklarini biladi. KK-5.2. Davlat ta’lim standartlariga muvofiq ta’limni turli shakllarida uni amalga oshirish uchun ta’lim mazmunini tanlashni biladi (o‘qitish metodikasi) qobiliyatiga ega bo‘ladi. KK-5.3. O‘quv modullarining turli shakllarini ishlab chiqish, o‘qitish usullari va texnologiyalari, shu jumladan raqamli texnologiyalarni qo‘llash qobiliyatiga ega bo‘ladi.
	KK-6. Turli ijtimoiy guruhlarning ehtiyojlariga mos ravishda madaniy-ma’rifiy dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirish qobiliyatiga ega bo‘ladi	KK-6.1. O‘quv modullari mazmunidan (profil bo‘yicha) foydalangan holda madaniy-ma’rifiy makonni tashkil qiladi va madaniy-ma’rifiy faoliyatning turli texnologiyalari va usullarini qo‘llaydi. KK-6.2. Madaniy-ma’rifiy tadbirlarni tashkil etishning turli yoshi, jinsi, ijtimoiy-madaniy, etnik guruhlar ehtiyojlarini hisobga olgan holda, fan yo‘nalishlarining (profil bo‘yicha) mazmuniy resurslaridan kelib chiqqan holda tashkil etish usullaridan foydalana oladi. KK-6.3. O‘quv jarayoni sub’ektlari o‘rtasida bilimlarni (profil bo‘yicha fan bo‘yicha) ommalashtirishda ishtirok etadi.
	KK-7. Tegishli fan bo‘yicha talabalarning individual va birgalikdagi o‘quv va loyiha faoliyatini tashkil qila oladi	KK-7.1. Loyihalashtirishni bilish, loyihalashtirish texnologiyalardan foydalana oladi. KK-7.2. Talabalarning tegishli fan yo‘nalishi bo‘yicha individual va birgalikdagi o‘quv va loyiha faoliyatini ishlab chiqadi va amalga oshiradi. KK-7.3. Tegishli fan yo‘nalishi bo‘yicha talabalarning o‘quv va loyiha faoliyatini amalga oshirish jarayonida ilg‘or pedagogik texnologiyalardan foydalana oladi.
	KK-8. Imkoniyati cheklangan shaxslarni o‘qitishda zamonaviy uslub va texnologiyalardan foydalana oladi	KK-8.1. Imkoniyati cheklangan o‘quvchilarni psixologik-pedagogik qo‘llab-quvvatlashning maxsus usullari va zamonaviy texnologiyalarini biladi. KK-8.2. Maxsus ta’limga muhtoj

		o‘quvchilarning ota-onalariga (qonuniy vakillariga) bolalarni tarbiyalash va o‘qitish masalalari bo‘yicha maslahatlar berish usullarini tanlay oladi.
	KK-9. Zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan, shu jumladan masofaviy texnologiyalardan foydalangan holda o‘quv jarayonini tashkil eta oladi	KK-9.1. Zamonaviy uslub va texnologiyalarga muvofiq turli xil darajadagi ta’lim dasturlarini ishlab chiqqa oladi. KK-9.2 Ta’lim-tarbiya jarayoni sifatini nazorat qilish vositalarini shakllantiradi KK-9.3. Diagnostika va monitoring faoliyati natijalariga muvofiq o‘quv jarayonini korreksiya qilish rejasini ishlab chiqadi.
	KK-10. O‘quv-tarbiya jarayoni va maktabdan tashqari mashg‘ulotlarda o‘quvchilarning sog‘lig‘ini muhofaza qilishni ta’minlashni biladi	KK-10.1. Bolalar shikastlanishining oldini olish choralarini qo‘llash va sog‘lig‘ini saqlash texnologiyalardan foydalanadi. KK-10.2. O‘quvchilarga birinchi tibbiy yordam ko‘rsatadi.

### 3. O‘quv yuklamasining hajmi

O‘quv reja tarkibi quyidagi modullardan iborat bo‘lishi maqsadga muvofiq: umumiylar moduli, til va muloqot moduli, pedagogik-psixologik fanlar va tarbiyaviy faoliyat moduli, ilmiy-tadqiqot moduli, kasbiy fanlar va ularni o‘qitish metodikasi moduli, tanlov fanlari (qo‘sishimcha ixtisoslashuv) moduli.

Majburiy fanlar hajmi 125 kreditdan 160 kreditgachani tashkil etadi. Tanlov fanlariga ajratilgan kreditlarning hajmi jami fanlarga ajratilgan kreditlar hajmining 22 foizidan oshmasligi tavsiya etiladi.

Pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta’lim muassasalari kunduzgi ta’lim shaklida tahsil olayotgan 2-3-bosqich talabalari uchun haftalik o‘quv mashg‘ulotlari «4+2» tartibida, shu jumladan darslarning 4 kuni oliy ta’lim muassasasida, 2 kuni maktabgacha va umumiylar o‘rtalim muassasalarida amaliyot o‘tash tartibida olib boriladi.

Talabaning haftalik o‘quv yuklamasi 54 soat etib belgilanadi. Bakalavrit ta’lim dusturini amalga oshirishda majburiy va tanlov fanlarining umumiylar soni 32 tagacha bo‘lishi tavsiya etiladi.

## Bibliografik ma'lumotlar

UDK 002: 651. 1/7

Guruh T 55

OKS 01.040.01

---

### Tayanch so'zlar:

kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, ta'lif yo'nalishi, kasbiy faoliyat ob'ekti, kasbiy faoliyat sohasi, bakalavriatning asosiy o'quv reja va fan dasturlari, profil, o'qib-o'rganish natijalar, o'quv davri menejment, tarmoqlar va sohalar, malaka talablari, bakalavriatning o'quv jarayoni, sifatni baholash va nazorati, mustaqil ta'lif, ishlab chiqarish, tashkiliy-boshqaruv faoliyati, malaka amaliyoti, bitiruv malakaviy ishi, davlat attestatsiyasi, o'quv fanlari bloki, oliy ta'lif muassasasi, ta'lif jarayoni, boshqaruv jarayoni, ishlab chiqarish, loyihalash, ilmiy tadqiqot jarayoni.

### Malaka talabini ishlab chiqishda foydalanilgan kasb standarti:

Kasb standarti nomi	Kasbiy faoliyat turi	Kasb standartining qayd qilish raqami	Kasb standartini amaliyatga joriy etish sanasi
Umumiyl o'rta ta'lif maktab o'qituvchisi	Umumiyl o'rta ta'lifda pedagogik faoliyat	R.005.060.0004/B-20	27.03.2020 № 60-ICh

Manba: Kasb standartlari reestri, <https://melnicat.uz/oz/professional-standarts/4>

Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy kadrlar iste'molchilari

ISHLAB CHIQILGAN:

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Rector



G.I.Muxamedov

KELISHILGAN:

OO'MTV huzuridagi Oliy ta'limni  
rivojlantirish tadqiqotlari va ilg'or  
texnologiyalarni tadbiq etish markazi

Direktor

Sh.U.Yakubov

202 yil "

M.O.

Toshkent viloyati

Chirchiq shahar

10-Ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim

maktabi direktori

Sh.S.Ergashev

202 yil "

M.O.

Kadrlar buyurtmachisi:

O'zRes Xalq ta'limi vazirligi huzuridagi  
Respublika ta'lim markazi

Direktor

Sh.Sh.Sattarov

202 yil

M.O.

Toshkent viloyati Chirchiq shahar

Xalq ta'limi bo'limi

mudiri Urazova N.A.

202 yil "

M.O.

EKSPERTIZADAN O'TKAZILGAN:

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish  
davlat inspeksiyasi

Ta'lim muassasalari attestatsiyasi va davlat akkreditatsiyasi bosh boshqarmasi  
boshligi

A.A.Odilov

202 yil « »

M.O.